

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI**

**TURIZM, MADANIY MEROS VA SPORT SOHALARIDA DAVLAT BOSHQARUVINI
TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR TASHKILIY CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA**

Ochiqlik siyosati, boy madaniy merosimiz va turizm sohasini qo'llab-quvvatlash natijasida, so'nggi yillarda yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyoohlarning soni bir necha barobar o'sdi. Pandemiya ushbu sohaga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda turizm xizmatlarini jadal rivojlantirish, ayniqsa, infratuzilmani yaxshilash, ziyorat turizmi va ichki turizm imkoniyatlarini kengroq ishga solish, shuningdek, madaniy meros obyektlari muhofazasini kuchaytirishga oid ishlar samaradorligini tubdan oshirish zarur.

Shuningdek, sport sohasida — mahallalar va ta'lif muassasalarida sportni yanada ommalashtirish, ularda sport bilan shug'ullanish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish orqali aholini, shu jumladan yoshlarni sportning barcha turlariga keng jalb qilish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish orqali o'g'il-qizlarimiz, ayollarimiz salomatligini mustahkamlash, nuroniy onaxon va otaxonlarimiz umrini uzaytirish, Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo va Paraosiyo o'yinlari hamda xalqaro musobaqalarda ishtirok etish uchun sportchilarimizning yanada puxta tayyorgarlik ko'rishlariga barcha sharoitlarni yaratish lozim.

Ushbu vazifalar ijrosini samarali tashkil etish, yangi yondashuvlar asosida turizm va sport sohalaridagi boshqaruv sifatini yanada oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar tashkil qilinsin:

a) Turizm va sport vazirligi negizida:

Turizm va madaniy meros vazirligi;

Sportni rivojlantirish vazirligi;

b) Turizm va sport vazirligining hududiy bo'linmalari negizida:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, Turizm va madaniy meros vazirligining viloyatlar va Toshkent shahar bosh boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo'limlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi, Sportni rivojlantirish vazirligining viloyatlar va Toshkent shahar bosh boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo'limlari.

2. Belgilab qo'yilsinki:

Turizm va madaniy meros vazirligi turizm va madaniy meros, Sportni rivojlantirish vazirligi esa sport sohalarida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlari hisoblanadi;

Turizm va madaniy meros vazirligi hamda Sportni rivojlantirish vazirligi o'z vakolatlari doirasida umummajburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi;

turizm, madaniy meros va sport masalalariga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari majburiy tartibda tegishinchalik Turizm va madaniy meros vazirligi hamda Sportni rivojlantirish vazirligi bilan kelishiladi;

davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, respublikaning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari Turizm va madaniy meros vazirligi hamda Sportni rivojlantirish vazirligining murojaatiga ko'ra tegishli ma'lumotlarni o'rnatilgan tartibda taqdim etadi;

Turizm va madaniy meros vazirligi hamda Sportni rivojlantirish vazirligi Turizm va sport vazirligining tegishli huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari, shu jumladan xalqaro shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

3. Quyidagilar:

a) Turizm va madaniy meros vazirligining asosiy vazifalari etib belgilansin: